

Huquqni Muhofaza Qiluvchi Organlar Faoliyatini Xalqaro Standartlar Asosida Takomillashtirish Masalalari

Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li¹

Annotasiya. Mazkur maqolada huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Ichki ishlar organlari tuzilishidagi konun, inson, uning haёti, erkinligi, sha'ni, кадр-қиммати ва бoшқа дахлсиз ҳуқуқлари таъминланишини.

Bugungi kunda inson huquqlari masalasiga butun dunyo ahli katta e'tibor bilan qaramoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham inson huquqlari sohasida turli islohotlarning amalga oshirilishi, uning ko'plab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lganligi hamda inson huquqlariga oid hujjatlarning ratifikatsiya qilinganligi mamlakatimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga e'tibor kuchayganligining yaqqol dalilidir. Bu borada mamlakat Prezidenti Sh.M. Mirziyoev inson huquq va erkinliklari borasida fikr bildirib, insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turishini ta'kidlab o'tdi [1].

Darhaqiqat, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish eng asosiy vazifasi hisoblangan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda. Chunki aynan huquqni muhofaza qiluvchi organlar mustaqil O'zbekistonning mamlakatdagi tinchlik va barqarorlik mavjud bo'lishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida ichki ishlar organlari yetakchi o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning organlari – davlatning huquqni muhofaza qilish organi bo'lib, jamiyat va davlat manfaatlarini turli g'ayriqonuniy tazyiqlaridan himoya qiladi. Ichki ishlar vazirligi va uning organlari qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash jinoyatchilikka karshi kurashish vazifasini amalga oshiradi.

Albatta, O'zbekistonda oliy qadriyat deb tan olingan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari ta'minlanishini yanada mustahkam kafolatlash maqsadida huquqni muhofaza qilish organlari xususan, ichki ishlar organlari tizimidagi amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2016 yil 16 sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi [2].

Mazkur qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining faoliyatini tartibga solishdan iborat bo'lib, unda qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda mazkur huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflik ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan bir qatorda qonunda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta'minlashdan iborat ekanligi belgilab berilgan.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari faoliyati mamlakatda huquq-tartibotni mustahkamlash, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka karshi kurash bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar ko'rish munosabati bilan olib borilmoqda. Qonunning ahamiyatli jihatlardan yana biri shundaki, unda ichki

¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi



ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari va prinsiplari talablaridan kelib chiqqan holda ichki ishlar organlari tomonidan ayrim majburlov choralari, shuningdek uning xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llashning asoslari va tartibi hamda xodimlarga nisbatan qo‘yiladigan talab va shartlar aniq belgilab berilgan. Shuningdek, qonunda bir qator masalalarga e‘tibor qaratilgan. Jumladan, ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi va shartlari, ichki ishlar organlari xodimlarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish masalalari atroflicha yoritib o‘tilgan.

Xususan, “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash shartlari va tartibi” deb nomlangan bobida ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash chog‘ida fuqarolar huquqlarining tengligini ta‘minlash, ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish, Ichki ishlar vazirligining ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, xizmatga qabul qilingan shaxslar uchun dastlabki sinov muddati, qasamyod qabul qilishiga oid normalar kiritilgan. Qonunning “Ichki ishlar organlari xodimlarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish” deb nomlangan bobida ichki ishlar organlari xodimlarini huquqiy himoya qilish kafolatlariga oid quyidagi qoidalar belgilangan:

- ichki ishlar organi xodimi davlat organi vakili sifatida ish yuritishi va davlat himoyasi ostida bo‘lishi;
- ichki ishlar organi xodimi xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida faqat bevosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshlig‘iga bo‘ysunishi;
- qonun bilan vakolat berilgan shaxslardan tashqari hech kim ichki ishlar organi xodimining qonuniy faoliyatiga aralashishi, ichki ishlar organi xodimini qonun bilan ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilmagan majburiyatlarni bajarishga majburlash huquqiga ega emasligi;
- qonunga zidligi aniq bo‘lgan buyruq yoki farmoyish olganda ichki ishlar organi xodimi uni bajarishni rad etish huquqiga egaligi va qonunga amal qilishi shartligi;
- ichki ishlar organi xodimi o‘z ish yurituvida bo‘lgan ishlar va materiallarning mohiyati haqida biror-bir tushuntirish berishga, shuningdek bunday ishlar va materiallarni, shu jumladan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor ishlar hamda materiallarni tanishib chiqish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan boshqacha tarzda taqdim etishga majbur emasligi;
- ichki ishlar organlarining xodimlari o‘ziga nisbatan qabul qilingan qarorlar va harakatlar (harakatsizlik) ustidan yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga, prokurorga yoki sudga belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega. Qonunda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishga quyidagilar kirishi keltirib o‘tilgan, ya‘ni xodimning sog‘lig‘ini saqlash, mehnatiga haq to‘lash, uy-joy maydoni bilan ta‘minlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash, xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish, davlat pensiya ta‘minoti, davlat sug‘urtasi, ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabilardir.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuning 35-moddasida bo‘lgilab qo‘yilgan bo‘lib ular quyidagilar orqali ta‘minlanadi:

- ✓ sog‘lig‘ini saqlash;
- ✓ mehnatiga haq to‘lash;
- ✓ uy-joy maydoni bilan ta‘minlash;
- ✓ mol-mulkiga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash;
- ✓ xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish;
- ✓ davlat pensiya ta‘minoti;
- ✓ davlat sug‘urtasi;
- ✓ ijtimoiy yordam ko‘rsatish.



Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mazkur qonun mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini, barqaror taraqqiyotni ta’minlashga, ichki ishlari organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga, ichki ishlar organlari uchun yuksak ma’naviyatli yetuk malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashga, ichki ishlar organlarining хуқуқий ва ижтимоий ҳимоясини самарали таъминлашга хизмат қилади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 2021 yil 22 fevral. <https://president.uz/uz/lists/view/4179>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabr kunidagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonuni. <https://lex.uz/mact/3027843>

